



XORAZMSHOHLAR DAVLATINING TARIXIY GEOGRAFIYASI

Bibirajab Yuldosheva

T.f.f.d (PhD), Buxoro davlat universiteti dotsenti

Moxitobon Razikova

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annatasiya: Mazkur maqolada Xorazmda hukmronlik qilgan anushteginiylar sulolasi davrida o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, siyosiy-tarixiy geografiyasi haqida ma'lumotlar yoritilgan bo'lib, davr nuqtai nazaridan boshqaruvni o'z qo'lga olgan hukmdorlar, ularning boshqaruv uslublari, harbiy yurishlari hamda shu bilan birgalikda siyosiy-tarixiy jarayonlar borasida ma'lumotlar keltirilib o'tilgan. Xorazmshohlar davlatida bo'lib o'tgan tarixiy evrilishlar, bosqinlar va shu bilan birga ichki bosh-boshdoqliklar, qo'shni dushmanlarning payt poylab davlatchilikning zaif nuqtalaridan foydalanib zimdan va oshkora amalga oshirgan harakatlari ushbu ulkan hududlarda yastangan mamlakatning murakkab taqdiridan so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Xorazmshohlar, Anushteginiylar, Saljuqiylar, Qutbiddin Muhammad, Alovuddin Xorazmshoh, Jaloliddin Manguberdi, Chingizxon, mo'g'ullar.

KIRISH QISMI

Xorazmshohiylar davlati tushunchasi asosan Xorazm hududiga nisbatan qo'llaniladi. Geografik jihatdan qulay yerda joylashgan, xalqaro savdo karvoni markazlaridan biri bo'lgan badavlat o'lka hisoblanuvchi Xorazm qadimgi madaniyat o'choqlaridan biri sifatida tanilgan. Xorazmshohlar davlatida Anushteginiylar (1097-1231) sulolasi o'z hukmronligini o'rnatgan bo'lib, u nafaqat Xorazm balki Eron va Kavkazorti hududlarini boshqargan sulola hisoblanadi. Sulola qudratga kelgunga qadar Xorazm Saljuqiylar tasarrufida edi. Sulola asoschisi esa Anushtegin hisoblanadi. Bu davrda Xorazm gullab yashnagan. Tadqiqotlar XI-XII asrlarda Xorazmda temirchilik, kulolchilik, shisha va qurilish kabi kasb-hunarlarining taraqqiyoti ayniqsa ahamiyatli.

ASOSIY QISM

Tarixdan ma'lumki, Xorazm hududi IX-X asr oxirigacha somoniylar qo'l ostida bo'lib turdi. Ammo X asr oxiri va XI asrning boshlariga kelib Xorazm hokimi Ma'mun I va uning og'li Ali ibn Ma'mun somoniylar davlati qulaganidan so'ng mustaqil davlat tuzishga harakat qilib ko'rdilar. Lekin ayni vaqtda Movarounnahrda Qoraxoniylar va Xurosondagi G'aznaviylar davlati oldida Xorazm davlati juda kuchsiz bo'lib, ko'p hollarda Mahmud G'aznaviy va uning og'li Mas'udga qaram edi. G'aznaviylar davlatining inqirozi va Xurosonda saljuqiylar hukmronligi o'rnatilgandan keyin Xorazm dastlabki yillarda mustaqil siyosat olib borishga harakat qilgan bo'lsa-da, tez orada saljuqiylarga qaram davlatga aylandi [1]. Bu vaziyatda Xorazm xalqi mustaqil davlat bo'lish uchun o'z harakatini boshladi.

Xorazmning mustaqillik uchun kurashi XII asrning ikkinchi choragidan boshlanadi [2]. Xususan, Saljuqiylar hukmdori Malikshoh davrida Xorazm mulkini mustaqil boshqarish huquqini qo'lga kiritgan, kelib chiqishi turk qavmiga mansub bo'lgan va sulolaga asos solgan sarkarda Anushtegin va uning avlodlari Qutbiddin Muhammad (1097-1127) va Jaloliddin Otsiz (1127-1156) davrida Xorazmning siyosiy mustaqilligi kengayadi va uning ijtimoiy-iqtisodiy qudrati muttasil o'sib boradi. Xorazmda anushteginiylar sulolasining mustahkamlanishi, o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida



Qutbiddin Muhammad garchi muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, lekin uning butun hukmronlik davri Saljuqiylar ta'siri doirasida kichadi [3]. Qutbiddin Muhammad “xorazmshoh” unvonini tiklab, bunday jarangdor nom bilan ulug'lansada, Saljuqiylar davlatining sadoqatli noibligicha qolgan edi. Keyinchalik bu vazifa uning vorislari tomonidan amalga oshiriladi. Xorazmning mustaqilligi Qutbiddin Muhammadning og'li Otsiz (1127-1156) nomi bilan bog'liqdir. Otsiz Sulton Sanjar hukmi bilan Xorazm noibligiga tayinlanadi.

Otsiz ham avvaliga otasi kabi saljuqiylarga sidqidildan xizmat qiladi. Ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, agar Xorazmshoh hukmdor Otsiz hukmronligining birinchi davrida (1127-1138) Sulton Sanjarga sadoqat bilan xizmat qilgan bo'lsa, biroq hukmronligining ikkinchi davrida (1138-1156) o'zining azaliy orzusi mustaqil Xorazm davlatiga asos solishga erishdi. Otsiz mavjud imkoniyatlardan to'raligicha foydalangan holda, ilk marotaba xorazmshohlar davlatining hududlarini kengaytirish siyosatini boshlab berdi. Ushbu tadbirli hukmdor, Sulton Sanjar farmonini buzib, saljuqiylarga tobelikda bo'lgan ko'pgina yerlarni bosib oldi [4].

O'rta asr Sharq tarixchilari Rashiddin, Ibn al-Asir, an-Nasaviy va boshqalar Otsizning faoliyatini yuqori baholab, “Saljuqiylar saltanatining ustunlaridan biri edi” deya uni ta'riflaganlar. Otsiz vafotidan keyin bo'lgan hokimiyat uchun sa'y-harakatlarda uning katta og'li Elarlonning qo'li baland keldi. (1156-1172). Taxtga o'tirgan yangi hukmdor o'z otasini siyosatini davom ettirishga harakat qildi. Shu bois janub- Xuroson hududiga katta e'tibor berdi [5]. Uning hukmronlik davrining oxirida qoraxoniylar va qoraxitoylarning Xorazmga jangovor harakatlari boshlandi. Ammo, qoraxitoylarning bu yurishi davrida Elarlon kasallikdan vafot etdi. (1172). Shundan so'ng uning o'g'illari Alavuddin Takash va Sultonshoh Mahmud o'rtasida uzoq vaqt toj-u taxt uchun kurashlar bordi. Alavuddin Takash 1172 yilning dekabrda qoraxitoylar malikasi Chen Tiyon yordamida rasman taxtga o'tirgan bo'lsa-da, aka-ukalar o'rtasida urush davom etdi. Takash o'z hukmronligi davrida ko'p istilochilik yurishlarini davom ettirdi. Shu tariqa Afg'oniston va Eronning katta qismi Xorazmshohlar qo'liga o'tdi va Xorazm davlati hududlari birdaniga ikki baravar kengaydi [6]. Takash o'z vorisi Muhammad Xorazmshohga (1200-1220) markazlashgan mustahkam davlat va tashkiliy jihatdan qudratli qo'shinni meros qoldirgan. Muhammad Xorazmshoh davrida davlat yanada kengayib, Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylandi. Xorazm hududiga e'tibor bersak, Kaspiy dengizidan Fors qo'ltig'igacha, Kavkazdan Hindikush tog'larigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olgan. Sharqdagi bu ulkan davlatning poytaxti Urganch shahri edi [7]. 1206 yildan boshlab Movarounnahrni qoraxitoylarning qaramligidan ozod etishga kirishildi. 1210 yilda Talos vodiysida qoraxitoylar mag'lubiyatga uchraydi. Yettisuvgacha bo'lgan yerlar Xorazmshohlar davlat tasarrufiga o'tadi [8]. Garchi sulton Muhammad Xorazmshoh mutloq hukmdor, qudratli davlat egasi hisoblansada, aslida esa o'z onasi Turkon xotun izmiga to'liq bo'ysunar edi. Sulton onasiga qarshi hech qachon qarshi chiqmas va bu holatni tarixchi an-Nasaviy quyidagicha izohlab uni ikki sababga ko'rsatgan edi: “birinchidan, onasining Unga bo'lgan mehrini qadrlashi, ikkinchidan, mamlakatning barcha amirlari onasi urug'idan ekanligidan”.

Turkon xotun “Jahon hokimi “ degan laqabga ega bo'lib, uning shaxsiy muhrida:”Ismat ud-dunyo vad-din Ulug' Turkon malika niso al-olamiyon” degan bitik yozilgan edi [5]. Xorazmshoh saroyida 27ta hukmdor va ularning vakillari itoat kamarlarini bog'lab, oltin nog'ora chalar va buyuk davlatning hukmdorini Iskandari Soniy (Ikkinchi Iskandar) deb atashmoqda edi. Xorazmshohlarning ulkan davlati ichki jihatdan mustahkam emas edi. Buning natijasida kuchli bo'lib ko'ringan davlat mo'g'ullarning zarbasiga bardosh bera olmadi. Muhammad Xorazmshoh og'li Jaloliddin Manguberdi (1220-1231)ga parokanda saltanatni meros qilib qoldirdi. Tarixiy manbalarda jasur lashkarboshi haqida Jaloliddin Manguberdi to'g'risida ko'plab ma'lumotlar uchratish mumkin. Ular orasida eng mukammal Shahobiddin Muhammad Nasafiy qoldirgan ma'lumotlardir [7]. 1231 yilda Jaloliddin Manguberdi vafoti bilan xorazmshoh unvoni saltanatni boshqargan sulolalar ham o'z yakunini topadi [8]. Xorazm gullab-yashnab yuqori bosqichga chiqqanda, qudratli xorazmshohlar davlati atrofida eng kuchli turk qabillari - qang'li, qipchoq, turkman va tub xorazm (sart) aholisi birikib jipslashyotgan va



dunyoni zabt qilish maqsadida xalifalikning markazi Bag’dodga qarshi yurishga tayyorlanayotgan bir paytda shafqatsiz Chingizxon qo’shinlari vaxshiylarcha bostirib kiradi. Ammo birinchi qarashda mustahkam bo’lib ko’ringan bu davlat kuchli ichki qarama -qarshiliklarni boshidan kechirayotgan edi [10]. Va shu bilan xorazmshohlar davlatiga yakun yasalardi.

XULOSA QISM

Xorazm davlatchiligining rivojlanishida muhim burilish yasagan XII- XIII asr boshlari davlatning tabir joiz bo’lsa “oltin davri” bo’ldi. Ushbu davr Xorazmda anushteginiylar sulolasidan chiqqan chiqqan hukmdorlar Otsiz, Takash va Sulton Muhammadxon Xorazmshoh mamlakatni boshqarishning yanada mukammal tizimi, tartiboti va uslublarini yarata olganligi bilan yanada ahamiyatli hisoblanadi. Shunga qaramasdan davlat sarhadlari naqadar bepoyon o’lkalarga tutashib ketmasin, biroq haqiqiy markazlashgan davlatchilik asoslari yaratilmadi. Xolisona yondoshilsa, Xorazmshohlar davlati o’z davrining ilm-fan va madaniyati rivoji bilan avlodlar yodida o’chmas iz qoldirdi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Yuldosheva, B., & Feruza, R. (2023). IX–XIII ASR BOSHLARIDA MOVAROUNNAHRDAGI IJTIMOYIY-IQDISODIY VOQEALAR TARIXIY-GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 41, 356-359.
2. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. – Toshkent. “Noshir”, 2010. – B 112.
3. O’zbekiston tarixi. Bobobekov X va boshq. – Toshkent. “Fan”, 2007. – B 65.
4. Matlyubov A., Egamberdiyev A., Ostonova F., Raxmotov U. 55 sulola tarixi. – Toshkent. “A.Navoiy”, 2016. – B 16.
5. Bibirajab Yo’ldasheva, & Sharipova Parizod. (2023). Markaziy Osiyo Tarixida Amir Temur Shaxsining O’rni. *Miasto Przyszłości*, 41, 424–429.
6. Yuldosheva, B., & Muxtorova, S. (2023). O’RTA OSIYONING IBTIDOIY JAMOA DAVRIDAGI TARIXIY GEOGRAFIYASI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 9-13.
7. Yuldosheva, B., & Rahmatova, F. (2023). SOVET ITTIFOQI TARKIBIDAGI O’ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA NAZAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 205-208.
8. Юлдошева, Б. М. (2022). ПАХТА МОНОПОЛИЯСИНИНГ БУХОРО ШАҲАР АТРОФ МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (XX АСР ДАВОМИДА): Юлдошева Бибиражаб Миржонова, Бухоро давлат университети таянч докторанти. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (5), 46-51.
9. Yuldosheva, B. M. ., & Islomova, S. J. qizi . (2023). IX-XIII Asrlarda Movarounnahrning Siyosiy-Tarixiy Geografiyasi. *Miasto Przyszłości*, 41, 132–135.
10. Shoimardonkulovich, Y. D., & Kadirovna, S. N. (2022). GREEN FACTOR OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN. *Gospodarka i Innowacje.*, 23, 102-104.
11. Bibirajab Yuldosheva, & Gulniso Rashidova. (2023). BUXORO AMIRLIGI VA ROSSIYA ELCHILIK MUNOSABATLARI (XVIII ASRDA). "ONLINE - CONFERENCES" PLATFORM, 1, 348–351.
12. Nayitov, J. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА МЕВАЛИ ДАРАХТЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ НАВЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 27(27).
13. Nayitov, J. (2023). МАРКАЗИЙ ОСИЁДА МАНЗАРАЛИ ДАРАХТЛАР ЯНГИ НАВЛАРИНИНГ ТАРҚАЛИШИ ТАРИХИ ВА ЭКОЛОГИК МУАММОЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШДАГИ ЎРНИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 27(27).